

**AVTOTURARGOH ISLOHATLARI XORIY TAJRIBALARIDA****Xalilova Gulira'no Xolmurot qizi**

Toshkent davlat transport unversiteti, doktorant,

**Samatov Rustam Gafforovich**

Toshkent davlat transport unversiteti, t.f.n.,dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8358227>

To'xtab turgan avtomobillar shunchalik uzoq vaqt ko'cha chetida qolib ketishadiki, bu xuddi avtomobillar yo'laklarni egalik qilgandek ko'rinadi. Lekin yerdan va yo'ldan samaraliroq foydalanish maqsadida bunday avtomobillarning turib qolishiga qarshi islohatlar dunyoning ko'plab shaharlarda amalga oshirilmoqda. Avtoturargohlar muammolari hamma joyda bir xil, ammo ko'p shahar rejalashtiruvchilari boshqa xorij shaharlarida yaxshi ish berayotgan avtoturargohlar siyosatidan bexabar bo'lganligi sababli o'z shaharlaridagi bu muammolarni yechimini topishga qiynalishadi. Avtomobillarning yaxshi to'xtash qoidalari transport ishini, iqtisodiyot, atrof-muhitni yaxshilaydi va aksincha esa tirbandlik ortishi, transport ishi samaradorligi pasayishi, atmosferaning ifloslanishi, haydovchilarning psixo-fizologik holatiga zarar yetkazadi.

Avtoturargohlarni muvaffaqiyatli isloh qilish borasida 29 ta tadqiqotchi olimlar beshta qit'aning 12 ta shahridagi islohatlarni o'rganishgan. Ushbu shaharlardagi tashkil qilingan avtoturargohlar dunyoning boshqa shaharlaridagi avtoturargohlar muammolarini ham hal qilishi mumkin.

Bu muammoni hal qilishda tadqiqotchilar avtoturargohlarni ikki turga ajratgan holda o'rganishdi: ko'cha chetida va ko'chadan tashqarida.

Ko'chada bepul to'xtash joyi jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Joy qidirish mobaynida avtomobillar tirbandlikni hosil qilishadi va bu bo'yicha olib borilgan 22 ta tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ko'cha chetidan to'xtash uchun joy qidirib yurgan avtomobillar ulushi 8 % dan 74% gacha, o'rtacha 34% ni tashkil qiladi. Joy topish uchun esa o'rtacha vaqt 3,5 dan 14 daqiqagacha, o'rtacha 7,5 daqiqani tashkil etadi ( Shoup,2018,262-bet). Haydovchilar avtomobillarini bepul to'xtash joyiga joylashtirish istagi sababli vaqt va yoqilg'ini bekorga sarflash, atmosferaga bo'ladigan zarar, keltirib chiqarilayotgan tirbandlik va piyoda va boshqa transport vositalarining hayotiga xavf solayotganlarini hisobga olishmaydi. Bunga misol qilib, Bangkokdagi yo'l chetini noqonuniy boshqarishni misol qilishimiz mumkin. Bu shaharda to'xtash joyiga talab ko'p bo'lgan ko'cha chetidagi joylar norasmiy shaxslar tomonidan to'lovlar asosida to'xtashga ruxsat beriladi.



Ba'zi shaharlarda esa arzon narxlarda ko'cha chetida to'xtash joylarini tashkil qilish orqali bu muammo qoniqarli hal qilingan.

Amsterdam 2025-yil oxirigacha 11 200 ta shahar markazlari ko'cha chetida to'xtash joylarini olib tashlash maqsadida yiliga 1500 taga bunday to'xtash joylarini qisqartirishni rejalashtirgan (O'. Sullivan, 2019). Buning uchun esa haydovchilar avtomobillarini utilizatsiya qilganda, shaharni tark etganda yoki vafot etganda hech qanday ko'cha chetida to'xtash joyi uchun ruxsatnomalar berilmaydi.

Bazi shaharlarda narxlar shunday belgilanganki, kun davomida ko'cha chetida turar joy uchun narxlar o'zgarib turadi. Masalan, ertalab avtoturargohga bo'lgan talab past bo'lsa, tushdan keyin talab yuqoriroq bo'lishi mumkin. Shunda ertalab narxlar yuqori ( ko'p joylar bo'sh bo'lganda), tushdan keyin esa past ( joylarning ko'pchiligi band) bo'ladi.

Avtoturargohlarning atmosferaga beradigan zararini kamaytirish maqsadida Madriddagi avtoturargohlarda maxsus avtomobillarning havoni ifloslantirish darajasini aniqlaydigan hisoblagichlar o'rnatilgan bo'lib, havoni kam ifloslantiradigan avtomobillar turargoh uchun 20 % ga arzonroq va ifloslantirish miqdori yuqori bo'lgan avtomobillar uchun esa 20 % ga qimmatroq narx belgilangan (Shoup,2018,313-bet).

Tadqiqotchilarning izlanishlari natijalariga ko'ra, sayohatlar ko'p bo'lgan yoki diqqatga sazovor joylarda to'xtash joylarini, avtomobillar harakatini qisqartirish va jamoat transporti sifatini yaxshilash, tirbandlikni kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi. Lekin shunga qaramay Santyago va ko'pgina shaharlarda sifatli jamoat transporti tashkil qilingan bo'lishiga qaramasdan avtomobillar uchun turargohlar tashkil qilish ham o'sib bormoqda.

Ko'cha chetida avtoturargoh tashkil qilish uchun avvalo narxlarni to'g'ri rejalash va tashkillashtirish, ko'chadan tashqarida avtoturargohlarni isloh qilishda esa minimal to'xtash joylari va maksimal to'xtash joylari chegaralari asosiy hisoblanadi.

Avtoturargohlardan samarali foydalanishning usullaridan yana biri turargohlarni intellektual jihozlar bilan jihozlab, turli xil smartfon ilovalari orqali turli xil yo'qotishlarni kamaytirishga erishish mumkinligini ko'plab shaharlar isbotlashdi. Bunda turargohni osongina topish v abo'sh joy bor yoki yo'qligini oldindan bilish orqali avtomobilning behuda harakatda bo'lish vaqtini kamaytirish, atrof muhitga chiqadigan zararni yo'qotish, tirbandlikni hosil qilmaslik, yoqilg'I tejamkorligiga erishish mumkin.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chet el tajribalarini o'rganish orqali biz boshqa shaharlardagi avtoturargoh sababli paydo bo'layotgan muammolarni hal qilib, avtoturargohlarni isloh qilishimiz mumkin. Bu esa transport va shahar markazlarida bo'layotgan dolzarb muammolardan birining yechimini topishda yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shoup, D., Yuan, Q., Jiang, X., 2017. Charging for parking to finance public services. J. Plan.Educ. Res. 37 (2), 136-149.
2. Xalilova, G & Samatov, R., (2022). AQLLI AVTOTURARGOHLAR TASHKIL QILISHDA PYTHON DASTURIDA YARATILGAN PROGRAMMA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 916-918.
3. Xalilova G., Samatov, R., & Abdurazakova, D. (2023). KO 'P QAVATLI AVTOTURARGOHLARDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNI
4. QO 'LLASH ORQALI SAMARADORLIGINI OSHIRISH. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Part 3), 118-121.
5. Xalilova, G & Samatov, R. (2023). AVTOTURARGOH QIDIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. Development and innovations in science, 2(4), 19-21.
6. Халилова, Г. Х & Абдуразакова, Д. А., (2023). ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ. Проблемы науки, 90.
7. Bozorboyevich, I. E., Anvarovna, A. D., & Kholmurotovna, K. G. N. (2023). APPROACHES BY EUROPEAN BIG CITIES ON URBAN TRANSPORT IMPROVEMENT. American Journal of Applied Science and Technology, 3(05), 4-9.
8. O'Sullivan, F., 2019. A Modest Proposal to Eliminate 11,000 Urban Parking Spots, CityLab, <https://www.citylab.com/transportation/2019/03/amsterdam-cars-parking-spaces-bike-lanestrees-green-left/586108/>, March 29, 2019.